



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2019-yil yanvar oyida bozor xizmatlari hajmi 389,6 mlrd.so`mni tashkil etib,o`tgan yilning shu davriga nisbatan 17,8 % ga o`tdi.

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush: transport xizmatlari (26,7%), savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 23,9%), moliyaviy xizmatlar (18,1 %),aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,7%) hissasiga to`g`ri keldi.


2019 yil yanvar oyida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %



Ma'lumot uchun: 2018 yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 307,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2019 yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 82,2 mlrd. so'mga oshdi.

2019 yilda ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Joriy yilda oldingi yilga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (17,3 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (14,2 mlrd. so'mga) hamda moliyaviy xizmatlar (34,2 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	389,6	117,8
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	26,1	98,9
moliyaviy xizmatlar	70,5	192,6
transport xizmatlari	103,9	112,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	56,0	102,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	12,2	103,8
savdo xizmatlari	93,3	106,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	13,5	100,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	11,9	111,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	4,2	102,9
ijara xizmatlari	9,7	125,9
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	12,3	102,9
shaxsiy xizmatlar	15,6	107,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	5,3	131,8
boshqa xizmatlar	11,1	100,1

2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



- | | | | |
|----------|---------------------------------------|-----------|--|
| 1 | Xizmatlar - jami | 8 | Ta'lim sohasidagi xizmatlar |
| 2 | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 9 | Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar |
| 3 | Moliyaviy xizmatlar | 10 | Ijara xizmatlari |
| 4 | Transport xizmatlari | 11 | Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar |
| 5 | Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 12 | Shaxsiy xizmatlar |
| 6 | Savdo xizmatlari | 13 | Me'morchilik sohasidagi xizmatlar |
| 7 | Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 14 | Boshqa xizmatlar |











2019 yil yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (92,6 %); me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (31,8 %); ijara xizmatlari (25,9 %); transport xizmatlari (12,4 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2019 yil yanvar oyida ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining ulushi, %**

Transport xizmatlari	26,7%
Savdo xizmatlari	23,9%
Moliyaviy xizmatlar	18,1%
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,7%
Shaxsiy xizmatlar	4,0%
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,4%
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,1%
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3,1%
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,1%
Boshqa xizmatlar	2,9%
Ijara xizmatlari	2,5%
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,4%
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,1%

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (jami xizmatlarning 26,7 %), savdo xizmatlari (23,9 %), moliyaviy xizmatlar (18,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2019 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Transport xizmatlari	103,9 mlrd.so'm
	Savdo xizmatlari	93,3 mlrd.so'm
	Moliyaviy xizmatlar	70,5 mlrd.so'm
	Boshqa xizmatlar	30,3 mlrd.so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	26,1 mlrd.so'm
	Shaxsiy xizmatlar	15,6 mlrd.so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	13,5 mlrd.so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	12,3 mlrd.so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	12,2 mlrd.so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	11,9 mlrd.so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (103,9 mlrd.so'm), savdo xizmatlari (93,3 mlrd.so'm), moliyaviy xizmatlar (70,5 mlrd.so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (26,1 mlrd.so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2019 yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi 93,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 23,9 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 78,0 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 13,7 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 8,3 % ni egallaydi.

2019 yil yanvar oyida savdo xizmatlari tarkibi, %



- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil choratadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019 yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 70,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 192,6 % ni tashkil etdi.



**Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

*Mas'ul: B.Tajibekov
(71)230-82-15*